

**O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI HUZURIDAGI  
BADIY TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA PEDAGOG VA  
MUTAXASSIS KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH HAMDA  
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

**“RANGTASVIR (TURLARI BO‘YICHA)”  
YO‘NALISHI**

**“KOMPOZITSIYADA USLUB VA BADIY TAHLIL”  
MODULINING**

**O‘QUV USLUBIY  
MAJMUASI**



**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:**           **R.Xudoyberganov** - professor.

**Taqrizchilar:**   **M.Tashmuradov** – O‘zbekiston Xalq rassomi, professor.

**B.Jalolov** - O‘zbekiston Xalq rassomi, professor.

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR .....	3
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI. ....	12
III. NAZARIY MATERIALLAR .....	25
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	25
V. KEYSLAR BANKI.....	29
VI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI.....	42
VII. GLOSSARIY .....	44
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	48

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta‘lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta‘lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta‘lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san‘at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta‘lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 21-iyundagi 385-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish, pedagog va mutaxassis kadrlar salohiyatini oshirish va shu orqali talabalarning badiiy estetik didini yuksaltirish kabi muhim vazifalar qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta‘lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta‘lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

Shuningdek, 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining V bob Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan 75-maqсад: Tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn yo‘nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda xorijiy davlatlardagi kredit ta’lim tizimlari, kredit tizimi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta’minlashning innovatsion metodlari, kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati, kredit-modul tizimida o‘quv jarayonining uslubiy ta’minoti, ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni, ta’lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy asoslari, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bayon etilgan.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari tomonidan ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda: O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, farmonlar, qarorlar hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyruqlari kabi normativ hujjatlar qo‘llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta’lim va tarbiya jarayonlarini subektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo‘llanilishining nazariy va amaliy jihatlari deyarli o‘rganilmagan. Bu holatlar oliy ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini badiiy ta’limning pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni

o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirish to‘g‘risida ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

**Modulning vazifalari:**

- Rangtasvirni didaktik prinsiplari;
- Rangtasvirni o‘qitishning asosiy qonun-qoidalari;
- Rangtasvir mashg‘ulotlari ko‘rib-kuzatib to‘g‘ri tasvirlash;
- Rangtasvir mashg‘ulotlari ko‘rib-kuzatib to‘g‘ri tasvirlash;
- ijodiy yondashishni tarbiyalash;
- Yorug‘-soyani topish, shtrixlash;
- Tekislikni joylashtirish;

**Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“Kompozitsiyada uslub va badiiy tahlil” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

**Tinglovchi:**

- kompozitsiyaning badiiy vositalarini;
- shakl va hajm tasvirida obrazni his qilishning ruhiyatga ta‘sirini;
- rangtasvir asarlaridagi kompozitsion yechimi va qoidalarini;
- tasviriy san‘atda nur-soya xususiyatlarini;
- kompozitsiya qurilishlari va badiiy yechimni;
- kompozitsiyada badiiy fikrlash xususiyatlarini;
- kompozitsiyada kolorit yechimi va inson ruxiyatiga ta‘sirini;
- rangtasvir kompozitsiyasini ishlashda tassavvur, anglash, ko‘rish va his etish qobiliyatlarini;
- chizmatasvirning tasviriy san‘atdagi rolini;
- chizmatasvir turlari va vositalarini;
- chizmatasvirda akademik maktab uslublarini;
- chizmatasvirda akademik tasvirlashning ahamiyati va talablarini;
- chizmatasvirning ikki o‘lchamlilik ko‘rinishlarida ta‘sirchanlik va badiiylikni;
- jahon chizmatasvir san‘at asarlari bilan tanishishda badiiylikning asosiy qonuniyatlarini;
- rangtasvirning tasviriy san‘atdagi o‘rnini;
- rangtasvir asoslarining vazifasini;

- rangtasvir turlari va vositalarini;
- akademik rangtasvirda naturadan ishlashning ahamiyati va talablarini ***bilishi***;
- kompozitsiyada fazoviy muhitni his qilish;
- tasviriy san'atda ko'nikma, mahorat va kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish;
- rangtasvir kompozitsiyasida shakl va hajm hosil qilish;
- chizmatasvir mahoratini oshirishda nusxa ko'chirish;
- chizmatasvirning turlarini qo'llash;
- chizmatasvirda jahon an'analari va maktablari usullaridan foydalanish;
- rangtasvirda akademik maktab uslublaridan samarali foydalanish;
- rangtasvir kompozitsiyasi qoida va qonunlarini tahlil qilish ***ko'nikmalariga*** ega bo'lishi;
- tasviriy san'atda kompozitsiyani AKT orqali baholash;
- kompozitsiyaning badiiy vositalarini qo'llash;
- rangtasvir asarlaridagi kompozitsion yechimi va qoidalarini taxlil etish;
- chizmatasvir mahoratini oshirishda mustaqil ishlash metodlaridan foydalanish;
- chizmatasvir ishlashda Yevropa maktablari tajribasini amaliyotda qo'llash;
- akademik rangtasvirda mahoratni oshirish metodlarini amaliyotga joriy etish;
- ijodiy ishlarni o'zaro prezentatsiya qilish ***malakalariga*** ega bo'lishi;
- ilg'or xorijiy san'at ta'lim muassasalarining tajribalarini o'rganish, tadbiq etish;
- shizmatasvir va kangtasvirda akademik maktab uslublarini tahlil etish;
- tasviriy san'atda akademik rangtasvir kompozitsiyasi orqali ijodiy tafakkur yurita olish;
- akademik chizmatasvir va rangtasvir ishlashda ilg'or, zamonaviy usublaridan foydalana olish;
- rangtasvirda ranglarning inson ruhiyatiga ta'sirini san'at asarlari orqali ifodalab berish ***kompetensiyalariga*** ega bo'lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Kompozitsiyada uslub va badiiy tahlil” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi, shuningdek, ma'ruza darslarida

zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda ustaxonalar, sohaga oid muassasalar va soha mutaxassislarining ijodiy ustaxonalarida tashkil etilishi, badiiy ta'limning muhim ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

**Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Kompozitsiyada uslub va badiiy tahlil” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Raqamli universitet” modeli va oliy ta'lim jarayonini boshqarishning axborot tizimlari”, “Ta'lim menejerining innovatsion kompetentligi” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

**Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar badiiy ta'limning ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'rganish, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

**MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI**

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	Kompozitsiyaning badiiy vositalari	2	2	
2.	Kompozitsiyada fazoviy muhitni his qilish	2		2
3.	Shakl va hajm tasvirida obrazni his qilish ruhiyatiga ta'siri	2	2	
4.	Kompozitsiyada badiiy fikrlash xususiyatlari	2		2
5.	Kompozitsion yechim va qoidalar	2		2
6.	Tasviriy san'atda nur-soya xususiyatlari	2		2
7.	Kompozitsiyada kolorit yechimi va inson ruhiyatiga ta'siri	2		2
	<b>Jami:</b>	<b>14</b>	<b>4</b>	<b>10</b>



## **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-MAVZU: KOMPOZITSIYANING BADIY VOSITALARI. (2 soat)**

Yaxlitlik qonuni. Kompozitsiyaning birinchi qonuni asarning yaxlitligi qonuni hisoblanadi. Badiiy asarning qonunan qurilgan yaxlitligini kompozitsiya aniqlab beradi. Kompozitsiyaning barcha unsurlari rassomning mantiqiy o'y-fikrlarini birlashtirgan holda joylashadi. Biz buyumni yoki asarni kuzatar ekanmiz, avvalo uning umumiy ko'rinishiga e'tibor beramiz va bolaklarni bir-biriga taqqoslaymiz. Demak, asarning bir butunligi (yaxlitligi) kompozitsiyani tashkil etadigan barcha qismlarining o'zaro bog liqligidir. Unsurlarning uyg'unligi ozida kompozitsiyaning xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Yaxlitlik tushunchasi kompozitsiya unsurlarining bir-biriga bevosita bo'ysunishi kabi tushunchalar bilan bogliqdir. Bu qonun badiiy tasvirning hamma turlarining asosiy qonuni hisoblanadi. Yaxlitlik qonunini qollamasdan turib chizish ham, naturadan ishlash ham mumkin emas. Shakl ham, rang ham o z-o zicha paydo bo lmaydi, balki ular butunlik bilan munosabatda, butunning qismi sifatida ko'rinadi. Kartinada chuqur o'ylanmagan konstruktiv fikr bolmasa, bolaklar xuddi yopishtirib ishlanganday boladi. Bunday holatda biz faqat alohida figuralarning o'zinigina eslab qolamiz. Asarda butunlik bolmaydi. Rassomlar kompozitsiyaning konstruktiv-fikriy tuzilishini topish uchun turli usullardan foydalanishadi. Ba'zi rassomlar kompozitsiyani tartib bilan o'ylab topadi, ba'zilari esa oldin tasavvuriga nima kelsa o'shani tartibsiz chizib tashlaydi, keyin esa undan yo'l kursatuvchi konstruktiv fikr qidiradi. Mukammal kompozitsiyani yaratish rassom uchun murakkab yol hisoblanadi. Shuning uchun ham mukammal yaratilgan kompozitsiyadagi bitta detalni olsak ham uning yaxlitligiga zarar yetadi. Bunday kompozitsiyaning barcha unsurlarining aloqasi aniq va mazmundor bolganligidan unga qo'shimchalar kiritib va o'zgartirib bolmaydi.

### **2-MAVZU: SHAKL VA HAJM TASVIRIDA OBRAZNI HIS QILISH RUHIYATIGA TA'SIRI. (2 soat)**

Kompozitsiya orqali muallif chiziq, shakl, rang va obrazlarni tartibga keltiradi, fazoviy kenglikni o'zlashtiradi va badiiy muhit yaratadi. Tasviriy san'atda ko'p shakl (figura)li kartina va haykallar ham kompozitsiya deb ataladi. Me'morlikda — kompozitsiya (mujassamot) bino (inshoot va ularning majmualari)ning tuzilishi, vazifasi va g'oyaviy badiiy jihatlari birligi va

shaharsozlikdagi o'rnini ta'minlashdan iborat; kompozitsiya butun bir shahar yoki me'moriy ansambl, alohida bino yoki inshootning tashqi qiyofasi bilan ichki xonalari, tuzilishi bilan bezaklari, rangi, loyihasi va qurilishini aniqlaydi, atrof muhit bilan uyg'unlashishi me'moriy kompozitsiyaga kiradi. Bu esa me'mordan katta mahorat talab etadi. Adabiyotlarda kompozitsiya – asarni badiiy shakllantirishga xizmat qiladigan turli qismlarning holati, o'zaro bog'liqligi, voqea, karakter-obrazlar, lirik chekinishlar, tafsilotlar bayoni va shu kabi ma'lum maqsadga boysundiriladi. Asar kompozitsiyasining yaxlitligi uning asosiy shartidir. Ortiqcha personaj, epizod va detallar asar qimmatini pasaytiradi. Shuning uchun ham badiiy asarda hech qanday yetishmovchilik ham, ortiqchalik ham bo'lmasligi kerak. kompozitsiyaning o'ziga xosligi syujet unsurlarining qanday tartib bilan joylashtirilishiga, syujetdan tashqari unsurlar (lirik, falsafiy-publitsistik chekinishlar, qo'shimcha epizodlar) ning boryo'qligiga, peyzaj, portret, psixologik tasvir, muallif tavsifi kabi vositalarning meyor va tartibiga bog'liq.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-MAVZU: KOMPOZITSIYADA FAZOVIIY MUHITNI HIS QILISH**

**(2 soat)**

Fazoviy kenglikni o'zlashtiradi va badiiy muhitni yaxlitlash. Tasviriy san'at musiqa va adabiyotdan farqli ravishda fazoviy san'at guruhiga kiradi, vaqt va masofada harakatning rivojlanishi uning asosi hisoblanadi. Rassomlar kartinada ob'ektlar harakati illyuziyasini yaratish, uning xarakteri to'g'risida juda ko'p vosita va priyomlarni bilishadi. Quyida biz ulardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz. Harakatni bilish qoidasi. Kompozitsiyada diogonal yo'nalishlar. Statik poza. Kompozitsiyani simmetrik, muvozanatda yoki oddiy geometrik sxemalar (uchburchak, aylana, oval, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak) asosida qurish.

### **2-MAVZU: KOMPOZITSIYADA BADIY FIKRLASH XUSUSIYATLARI.**

**(2 soat)**

Badiiy obraz ifodasining asosiy tasviriy vositalaridan biri shakldir. Pleye aytganidek, shakl harakatdagi nuqtani paydo qiluvchi chiziqdan hosil bo'ladi. Chiziqning siljishi tekislikni hosil qiladi, tekisliklarning tutashuvi jism hosil qiladi. Bu fikrni ta'lim jarayonida kompyuterdan foydalanib yaqqol namoyish qilish mumkin. Nuqta, chiziq, dog' - bularning hammasi tekislik kompozitsiyasi hosil

qilish elementlaridir. Chiziq va dog' joylashishiga bog'liq holda tomoshabinga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon assotsiativ (tasavvur, his-tuyg'u, fikr) va intuitiv (sezgi) darajada, shuningdek, xotira darajasida ro'y beradi. Insonning shaklni aniq fizik idrok qilishi ham mavjud hol. Chiziq - tasvirning oddiy, shu bilan bir vaqtda asosiy elementi. U bu ahamiyatini ishning deyarli barcha bosqichlarida saqlab qoladi. Yordamchi funksiyalarni bajarib, badiiy mohiyatga ham ega bo'lishi mumkin.

### **3-MAVZU: KOMPOZITSION YECHIM VA QOIDALAR.**

**(2 soat)**

Shakl hosil qilish qoidalari. Umumiy va takrorlanuvchi dastlabki elementlar to'plamidan kombinator shakllarning turli guruhini tashkil qilish ma'lum qoidalar bo'yicha va aniq shartlarni saqlagan holda amalga oshiriladi. Kompozitsiya asrlar mobaynida shakllangan qonunlar va qoidalar asosida quriladi. Uning qonun qoida va usullari o'zaro bog'liq bo'lib, kompozitsiya ustida ishlash jarayonida unga hamma holatdagi harakatlar ta'sir etadi. Ilg'or g'oya maqsadlarini ishonarli, ta'sirchan ifodalashda asar yaxlidligiga amal qilgan holda va badiiy san'atning barcha imkoniyatlaridan o'rinli foydalana olish talab etiladi. Kompozitsiya qoidalariga quyidagilarni ajratish mumkin: - harakat tasvirini berish (dinamika), - harakatsizlik, sokinlik tasviri (statika), - oltin kesishuv (uchdan bir). Kompozitsiya usullari ritm, simmetriya, asimmetriya, kompozitsiya qismlarining muvozanatlilik va kompozitsion markaz ko'rinishing bo'rttirib ko'rsatishlarga ajratish mumkin. Kompozitsion vositalarga o'lchov (format), kenglik, kompozitsion markaz, muvozanatlik, ritm, kontrast, yorug' va soya, rang amaliy bezak (dekorativnost) dinamika va statika, simmetriya va asimmetriya, ochiq va yopiq, umumiyliklar kiradi

### **4-MAVZU: TASVIRIY SAN'ATDA NUR-SOYA XUSUSIYATLARI.**

**(2 soat)**

. Predmetning shaklini inson undagi yorug' va soya kontrastiga qarab qabul qila oladi. Chunki yorug'-soyaning yo'qligi, yassilikni, hajmsizlikni keltirib chiqaradi. Masalan, portret san'atida rassomlar qadimdan tonlar kontrastidan foydalanishgan. Kompozitsiyaning priyomlariga ritm, simmetriya va asimmetriya, muvozanat va syujetli - kompozitsion markazni aniqlash kiradi. Kompozitsiyaning vositalari quyidagilardan iborat: format, masofa, kompozitsion markaz, ritm,

kontrast. Yorug`-soya, rang, dekorativlik, dinamika va statika simmetriya va assimmetriya, ochiqlik va yopiqlik, yaxlitlik va hokazo. Kompozitsiya vositalariga aniqlovchi kompozitsion usul, proporsiya va masshtab, kontrast va nyuans, metrik takror va ritm, rang, soyalar va plastika kiradi.

Kontrast - mahsulot kompozitsion elementlarining shakl, tekstura, rang, yorug`-soya va boshqa ko'rinishlarda bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, nyuans esa kompozitsion elementlar xususiyatlarining sekin-asta, nozik va o'zaro bog'liqlikdagi o'zgarishidir

## **5-MAVZU: KOMPOZITSIYADA KOLORIT YECHIMI VA INSON RUHIYATIGA TA'SIRI.**

**(2 soat)**

Ranglarning insonga ta'siri murakkab va turli sabablar bilan aniqlanadi. Hamma organizmlar - o'simliklar ham, hayvonlar ham ranglardan turlicha ta'sirlanadilar. To'lqinlarning aniqrog'i, turli ranglarning turli uzunlikdagi yorug'lik nurlari organizm yashash faoliyatiga spetsifik ta'sir ko'rsatadi: bir rang nurlari hayot jarayonlarining ancha tez va jadal o'tishiga yordam beradi, boshqa ranglar nurlari bu jarayonlarning o'tishini sekinlatadi. Va inson organizmi ranglarning bunday bevosita ta'siriga uchraydi. Buni yoruglik nurlarining organizmga fiziologik ta'siri deb atash mumkin, lekin bunga ranglarning insonga ta'siri haqidagi butun masalani to'liqligicha kiritish mumkin emas

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, badiiy estetik didni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko'rilayotgan kompozitsiyaning badiiy yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (kompozitsiya yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

-

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

“**Aqliy hujum**” **metodi** - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.


“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda –yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

**“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:**

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



#### **“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi**

#### **“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

#### **“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:**

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi; fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

#### **“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:**

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodi** - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.

### **“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi**

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

### **«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

### **«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;

- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;

- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.


**“Davra suhbatı” metodi** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbatı” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-


mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

### **Davra stolining tuzilmasi**

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbatı” metodining tuzilmasi keltirilgan







### **Baholash va tahlil qilish**

**“Davra suhbatini” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg‘ulot mavzusi e‘lon qilinadi.
2. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta‘lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta‘lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi.

Ta‘lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.

Ta‘lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va

“Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta‘lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta‘lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi. Ushbu metod orqali ta‘lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta‘lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta‘lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta‘lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta‘lim beruvchi ham ta‘lim oluvchilarni obyektiv baholashi mumkin.

**“Davra suhbatini” metodining afzalliklari:**

- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta‘lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta‘lim oluvchi o‘zining baholanishi mas‘uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

**“Davra suhbat” metodining kamchiliklari:**


- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta‘lim beruvchining o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi;
- ta‘lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

**“Rolli o‘yin” metodi** - ta‘lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta‘lim oluvchilar ta‘lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma‘lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta‘lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilar haqida oldindan ma‘lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta‘lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta‘lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



## **Yakuniy xulosaga kelinadi**

### **“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi**

#### **“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi. Ushbu metodni qo‘llash uchun ssenariy ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba’zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta’lim oluvchilar ushbu rolli o‘yin ko‘rinishidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

#### **“Rolli o‘yin” metodining afzallik tomonlari:**

- o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni o‘rgatadi;
- ta’lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

#### **“Rolli o‘yin” metodining kamchilik tomonlari:**

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning o‘yinga tayyorgarligi turlicha bo‘lishi mumkin;
- barcha ta’lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

**“Bahs-munozara” metodi** - biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishim mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.



**“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi**

**“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchita'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

### **“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:**

- ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta'lim oluvchilar o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

### **“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:**


- ta'lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

**“Muammoli vaziyat” metodi** - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga,

o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.





**“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi**

**“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo’yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o’rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to’g’risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo’yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

**“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:**

- ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;

- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

### **“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:**

- ta'lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko'p vaqt talab etiladi.

**“Loyiha” metodi** - bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruh bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining

birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta'lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va

y ta'lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish,

tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.

### **“Loyiha” metodining bosqichlari**

#### **“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. O'qituvchi loyiha ishi bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.

2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.



3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ta'lim oluvchilar o'qituvchi bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. O'qituvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda "Baholash varaqasi"ni ishlab chiqadi.
4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.
5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlarini tekshiradilar.

Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini "Baholash varaqasi"da qayd etiladi. Ta'lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. O'qituvchi va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni meyoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda meyoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi. O'qituvchi "Loyiha" metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim.

"Loyiha" metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhiy ish;
- jamo'a ishi.

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-mavzu. Kompozitsiyaning badiiy vositalari (2 soat)

Yaxlitlik qonuni. Kompozitsiyaning birinchi qonuni asarning yaxlitligi qonuni hisoblanadi. Badiiy asarning qonunan qurilgan yaxlitligini kompozitsiya aniqlab beradi. Kompozitsiyaning barcha unsurlari rassomning mantiqiy o'y-fikrlarini birlashtirgan holda joylashadi. Biz buyumni yoki asarni kuzatar ekanmiz, avvalo uning umumiy ko'rinishiga e'tibor beramiz va bo'laklarni bir-biriga taqqoslaymiz. Demak, asarning bir butunligi (yaxlitligi) kompozitsiyani tashkil etadigan barcha qismlarining o'zaro bog'liqligidir. Unsurlarning uyg'unligi o'zida kompozitsiyaning xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Yaxlitlik tushunchasi kompozitsiya unsurlarining bir-biriga bevosita bo'ysunishi kabi tushunchalar bilan bog'liqdir. Bu qonun badiiy tasvirning hamma turlarining asosiy qonuni hisoblanadi. Yaxlitlik qonunini qo'llamasdan turib chizish ham, naturadan ishlash ham mumkin emas. Shakl ham, rang ham o'z-o'zicha paydo bo'lmaydi, balki ular butunlik bilan munosabatda, butunning qismi sifatida ko'rinadi. Kartinada chuqur o'ylanmagan konstruktiv fikr bo'lmasa, bo'laklar xuddi yopishtirib ishlanganday bo'ladi. Bunday holatda biz faqat alohida figuralarning o'zinigina eslab qolamiz. Asarda butunlik bo'lmaydi. Rassomlar kompozitsiyaning konstruktiv-fikriy tuzilishini topish uchun turli usullardan foydalanishadi. Ba'zi rassomlar kompozitsiyani tartib bilan o'ylab topadi, ba'zilari esa oldin tasavvuriga nima kelsa o'shani tartibsiz chizib tashlaydi, keyin esa undan yo'l kursatuvchi konstruktiv fikr qidiradi. Mukammal kompozitsiyani yaratish rassom uchun murakkab yo'l hisoblanadi. Shuning uchun ham mukammal yaratilgan kompozitsiyadagi bitta detalni olsak ham uning yaxlitligiga zarar yetadi. Bunday kompozitsiyaning barcha unsurlarining aloqasi aniq va mazmundor bo'lganligidan unga qo'shimchalar kiritib va o'zgartirib bo'lmaydi. Kompozitsiyaning barcha unsurlarining o'zaro aloqasi faqatgina mantiqan emas, balki uyg'unlik yaratuvchi emotsional estetik sifatlarga ega. Kompozitsiyaning yaxlitligi, aloqasi va bir-biriga bog'liqligi muammosi kompozitsiya elementlarining takrorlanmasligi, turli-tumanligi vazifasi bilan uzilmas aloqadadir. Kompozitsiyada hech narsa takrorlanmasligi kerak. Uning kattaligi, dog'i, intervallari, tipi, jesti ya'ni harakat belgisi ham takrorlanmasligi kerak. Ularning hammasi bir butun dog' yoki siluetga birlashishi o'zbek rassomlari Abdulhak Abdullayev, Malik Nabiyev portretlari, rus rassomlaridan M.Grekov, Surikov va Repin asarlarini olishimiz mumkin. Ko'pgina rassomlar o'zlarining ko'p figurali asarlarini yaratib, ko'p detallarini takrorlanmasligiga erishishgan. Asarda harakatni aniq tasvirlash uchun tasvirlanayotgan voqeani kulminatsion nuqtasini topish, ya'ni oldingi harakatning belgilarini va keyingi bo'lajak voqealarni his qilish va tasvirlash lozim. Asarda qonunning bu belgilarini bera olmaslik kompozitsiyaning

qotib qolishiga olib keladi. Bunda hattoki dinamik holatda tursa ham harakatni faqat tashqi ko'rinishi tasvirlanadi. Mana shuning uchun ham rassom hayotni harakatda, yangining tuzilishi jarayonida qura olishi juda muhim. Ko'p figurali kompozitsiyaga nisbatan, bir figurali kompozitsiyada harakatni berish juda qiyin. Repinning "Kutmagan edilar" nomli asarida bir necha figura qatnashadi. Bu asarni tomosha qilgan kishi faqat tasvirlangan vaqtni emas, balki surgundan qaytgan kishi kirmasidan oldin ular nima ish qilib va qanday holatda o'tirganini ham tasavvur qila oladi. Uning pay do bo'lishi holati hozirgi holat sifatida his qilinadi. Chunki tasvirdagi boshqa barcha personajlar holatida oldingi harakat izlari saqlanib qolgan. Unda qari ona kresloni surgan holatda o'g'liga intilgani, xotini esa royal chalishdan to'htab, o'girilib qarab turgani tasvirlangan. Keyingi harakat esa tasvirlanmagan bo'lsa ham quvnoq shovqin-suronni, savol-javobni va quvonch ko'z yoshlarini his qilish mumkin. Bu asarda voqeaning kulminatsion nuqtasi aniq ko'rinish turibdi. Unda vaqt va harakat juda muvaffaqiyatli berilgani uchun ham asar juda hayotiy chiqqan. Rassom Yu.I. Pimenov o'zining "Yangi Moskva va Kechagi ko'chadagi to'y" nomli asarlarida ham zamonaviy shaharni harakatda bera olish. Uni ko'rgan tomoshabin voqealar xuddi ko'z oldida bo'lib turgandek his qilinadi. Tipiklashtirish qonunining uchinchi belgisi uning yangiligidir. Realistik san'at hayotni faqat haqiqiy holatda tasvirlash bilan birga, rassomning oddiy kundalik hayotdan zavqlanishini, uni estetik his qilishni ham ko'rsatib bera oladi. Tasvirlanayotgan materialni estetik jihatdan o'zlashtirish - san'atning spetsifik xususiyatlaridan biridir. Bu estetik qarashlarsiz u o'ziga-o'zi qarshi chiqadi. Demak badiiy obraz o'zida estetik sifatlarni namoyon qilishi va kompozitsion yechimda yangilik yaratishi zarur. Haqiqatan ham biz Mikelandjelo, Titsian, Rembrandt. A.A.Deyneka, A.A.Plastov, o'zbek rassomlaridan R.Ahmedov, O'.Tansiqboyev asarlarida biz dunyoni juda go'zal holatda ko'ramiz va his qilamiz

## **2-mavzu. Shakl va hajm tasvirida obrazni his qilish ruhiyatiga ta'siri (2 soat)**

Qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonuni. Kompozitsiyaning yana bir asosiy qonunlaridan biri bu qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonunidir. Qarama-qarshi munosabatlar kompozitsiyaning ta'sirchan kuchini ko'rsatib beradi. Kompozitsiyada qarama-qarshi munosabatlarning ahamiyatini rassomlar qadimdan bilishgan, Leonardo da Vinchi o'zining "Rangtasvir haqidagi traktatlar" nomli asarida uzunlik kontrasti (uzun va past, semiz va ariq), xarakter, faktura, materiallar kontrasti to'g'risida yozib qoldirgan. Mikelandjelo o'z asarlarida hajm va yassilik kontrastlariga e'tibor bergan. U o'z asarlarida hajmli figuralarning ko'rinishini ozg'in figuralar yoki yassilik orqali bo'rttirib ko'rsatgan. Inson o'z atrofidagi predmetlarni eng avvalo ularning siluetiga qarab ajrata olamiz. Bu esa tasviriy san'atda juda katta ahamiyatga

ega. Predmetning shaklini inson undagi yorug' va soya kontrastiga qarab qabul qila oladi. Chunki yorug'-soyaning yo'qligi, yassilikni, hajmsizlikni keltirib chiqaradi. Masalan, portret san'atida rassomlar qadimdan tonlar kontrastidan foydalanishgan. Ular o'z asarlarida to'q rangli fonda yorqin figurani tasvirlashgan. XIX asrga kelib esa rassomlar portretida yorqin on qo'llay boshlashgan. V.A.Serovning "Shaftoli ushlagan qiz" nomli asarida yorqin fonda qizning yuzi yengil siluetda tasvirlangan. Rangtasvir asari issiq va sovuq ranglar kontrasti asosida quriladi. Rang kuchi uning yoniga qo'yilgan kontrast ranglar (qo'shimcha ranglar) orqali beriladi. Bular qizil-yashil, ko'k-zarg'aldoq - yashil, ko'kzarg'aldoq, oq qora va hokazo bo'lishi mumkin. Kompozitsiyada uzunlik kontrastlari (katta va kichik) va syujet tuzilishidagi kontrastlar (holat, psixologik) katta rol o'ynaydi. Monumental asarlar ham kontrastlar asosida quriladi. Bu yerda uzunlik kontrasti katta ahamiyatga ega. Masalan, monumentalist - haykaltaroshlar mayda shakllarni yirik monumentlar oyog'i ostiga qo'yishadi. Kompozitsiyada ideyani tasvirlash va syujetni qurilishida psixologik va holat kontrastlarini qo'llanilishi haqida Ye.A. Kibrik shunday deydi: "Kompozitsiyaning syujetini kurishda holatlarni qarama-qarshi qo'yish muhim ahamiyatga ega. Masalan, dehqon yoki turma" vagonida hibsga o'tirgan mahbusga perronda uchib yurgan ozod kabutarlar kontrast bo'la oladi. Kir, yirtiq-yamoq kiyimlardagi ishchi bilan yaxshi kiyingan fabrikant ham kontrastni bera oladi. Shunday qilib kompozitsiyada kontrastlar universal rol o'ynaydi. Ular kompozitsiyada ideyaning konstruktiv xarakteridan boshlab, syujet qurilishiga katta ta'sir qiladi. Kompozitsiyadagi barcha qonun va vositalarning uning fikriy g'oyaviy mazmuniga bog'liqligi qonuni. Bu qonunga asosan rassom yaxlit, ta'sirchan, fikriy- g'oyaviy jihatdan juda mazmundor san'at asari yaratadi. Chunki kompozitsiyaning tuzilishi barcha qismlari va detallari bilan formalistik sxemaga ega emas, balki uning fikriy mazmuniga asoslanishi kerak. San'at asari ustida ishlar ekan rassom uning kompozitsiyasi orqali o'zini tasvirlaydi, unga ma'naviy va estetik jihatdan baho beradi. Bu holatlar rassomning eng yuqori fikri va g'oyasi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, rassom o'zining fikri va g'oyasini kompozitsiya orqali bera olsa bu badiiy asarga aylanadi. Aks holda bu ob'ektiv real borliqni fotografik ko'chirish yoki mazmun va mohiyatdan holi bo'lgan tasvirga aylanadi. Bu qonun hajmlar munosabatini (soni va sifati), rang, yorug'lik, ton va shakl, shuningdek ritm va plastikasini berishi, harakat yoki nisbiy tinchlik holatini, simmetriya va assimetriyasini hisobga olishni talab qiladi. U kartina o'lchamiga barcha shakllarning nisbiy o'lchamini, kompozitsiyaning syujet markazini boshqa qismlariga nisbatini aniqlashtirishni talab qiladi. Asarda yaxlitlik taassuroti hosil bo'lishi uchun qismlar va elementlarning o'lchamlari nisbatlarning garmonik uyg'unligini keltirib chiqarishi lozim. Bu vazifalar rassomning fikriy-g'oyaviy mazmuniga mos holda yechilishi zarur. Shunday asarlar qatoriga M.B. Grekovning "Tachanka" asarini kiritishimiz mumkin. Bu qonuning mazmun va

mohiyatidan ko'rinib turibdiki asar yaratuvchi rassom kuchli aqlga, qaynoq yurakka va chuqur fikr bildirishga qodir inson bo'lishi lozim. Shuning uchun ham rassom uchun katta dunyoqarashga ega bo'lishi juda zarur. Xulosa qilib shuni aytib o'tish lozimki, yuqoridagi qonunlarga rassom faqat o'z munosabatini bildirsa, tomoshabinga tushunarli bo'lgan asar yaratishi mumkin emas. Chunki tasviriy san'atning asosiy vazifalaridan biri bu insonlar orasidagi muomala vositasi bo'lib xizmat qilishdan iboratdir. Yuqorida keltirib o'tilgan qonunlar abstraksionizm va naturalizmga juda begonadir. Nazariya amaliyotini kerakli bilimlar bilan qurollantiradi, aniqroq qilib aytganda asrlar davomida rassomlar tomonidan to'plagan boy materialni sistemali ravishda san'atga qaytaradi. San'at nazariyasi, rassomning yoshlik davridan boshlab shakllangan dunyoqarashi kabi juda katta ahamiyatga ega. Kompozitsiyaning qoidalari, priyomlari va vositalari kompozitsiyaning badiiy ahamiyat va nazariyaning rivojlangan qonun-qoidalari va vositalari mavjud. Quyida asar yaratish jarayonida musavvirga yordam beruvchi asosiy qoidalari va vositalar haqida kengroq to'xtalib o'tmoqchimiz. Albatta insonning o'zida hech qanday ijodiy qobiliyat yoki qiziqish bo'lmasa uni hech qanday qonun, qoidalar va vositalar bilan to'ldirib bo'lmaydi. Qobiliyatli rassomlar to'g'ri kompozitsion yechimni o'zining hissiyot va sezgisi orqali topadi, lekin bu qobiliyatni rivojlantirish uchun nazariyani ko'proq o'rganib, uni amaliyotda qo'llab ko'proq mehnat qilish lozim. Kompozitsiya yuqorida aytib o'tganimizdek aniq qonunlar asosida quriladi. Uning qoidalari, priyomlari va vositalari esa butun ish jarayonida qo'llaniladi. Ular badiiy asarning yaxlitligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Rassomning fikri taassurotini yoritib beruvchi badiiy vositalarning qo'llanilishi va original kompozitsion yechimni topish kompozitsiyaning tasviriy asosi hisoblanadi. Kompozitsiyaning qoidalarini quyidagilarga ajratish mumkin: harakat (dinamika)ni berish, tinchlik (statika, oltin kesim 1/3). Kompozitsiyaning priyomlariga ritm, simmetriya va assimmetriya, muvozanat va syujetli - kompozitsion markazni aniqlash kiradi. Kompozitsiyaning vositalari quyidagilardan iborat: format, masofa, kompozitsion markaz, ritm, kontrast. Yorug'-soya, rang, dekorativlik, dinamika va statika simmetriya va assimmetriya, ochiqlik va yopiqlik, yaxlitlik va hokazo. Shunday qilib, kompozitsiya vositalari, bu kompozitsiyani yaratishda zarur bo'lgan barcha narsalar, shu bilan birga ularning qatoriga kompozitsiyaning qoidalari va priyomlarini ham kiritamiz. Ular turli tuman. Biz bu yerda eng asosiylari to'g'risidagina ma'lumotlarni berdik. Ritm. Hammaga ma'lumki, ritm - bu tabiatning universal xususiyatidir. Masalan, kun va tun, yil fasllari siklik ravishda o'zgarib turadi, hayvonlar, o'simliklar va materiallarning rivojlanish jarayoni aniq ketma-ketlikka ega. Lekin hayot va san'atdagi ritm bir hil emas. San'atda ritm va ritmlilik aktsentlarda uzilish, notenglik, noaniqlik bo'lishi mumkin. Musiqadagi kabi tasviriy san'atda ham ritmlar faol, uzuq-yuluq, tekis, xotirjam, sekinlashgan ritmgga ajratiladi. Ritm - bu qandaydir elementlarni ma'lum bir

ketma-ketlikda joylashishidir. Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, dekorativ san'atda ritm kompozitsiyaning muhim tasviriy vositasi sifatida qatnashadi. U faqat tasvirni ko'rishdagina qatnashib qolmay, balki asarga aniq emotsionallik bahsh etadi. Ritm chiziqlar, dog'lar, yorug'lik va soya, rang orqali berilishi mumkin. Kompozitsiyada bir-hil elementlar takrorlanib keladi, masalan odamlar qomati, ularning qo'li yoki oyog'i va hakoza. Natijada ritm hajmlar kontrasti asosida quriladi. Ritmlar dekorativ - amaliy san'atda muhim rol o'ynaydi. Turli-tuman bezaklardagi ko'plab kompozitsiyalar elementlarining aniq ritmik ketma-ketligida qurilgan. Ritm tekislikda harakatni bera oluvchi vositalardan biridir. Nimaga ritm harakatni ko'rsata oladi? Bu bizning ko'ruv organizmining xususiyati bilan bog'liq. Bizning nigohimiz bitta tasviriy elementdan o'ziga o'hshash boshqa elementga tushar ekan, o'zi ham harakatda qatnashadi. Masalan. Biz suv to'lqiniga qarar ekanmiz, nigohimiz bitta to'lqindan ikkinchisiga o'tadi va ularning harakati illyuziyasi hosil bo'ladi. Tasviriy san'at musiqa va adabiyotdan farqli ravishda fazoviy san'at guruhiga kiradi, vaqt va masofada harakatning rivojlanishi uning asosi hisoblanadi. Tabiiyki biz harakatni tekislikda berish haqida gapirganda, albatta uning illyuziyasini ko'zda tutamiz. Rassomlar kartinada ob'ektlar harakati illyuziyasini yaratish, uning xarakteri to'g'risida juda ko'p vosita va priyomlarni bilishadi.

#### **IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**

##### **1-mavzu. Kompozitsiyada fazoviy muhitni his qilish. (2 soat)**

Quyida biz ulardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz. Harakatni bilish qoidasi. Quyidagi sharoitlarda ob'ektlar kartinada xuddi harakatlanayotgandek ko'rinadi: Agar kartinada harakat yo'nalishi bo'yicha bitta yoki bir nechta diogonal chiziqlardan foydalanilsa; Agar harakatlanayotgan ob'ekt oldida bo'sh masofa qoldirsak; Agar harakatni xarakterni juda aniq ochib beruvchi kerakli kulminatsiya tanlansa. Bundan tashqari harakatni faqat bir momentini emas, balki uning harakatlarini bosqichma-bosqich bersak ham tasvir harakatlanayotganga o'hshab ko'rinadi. Masalan, qadimgi Misr releflarida har bir figura aniq bir holatda qotib qolgan, lekin kompozitsiyani aylana holatida tomosha qilsak harakat ketma-ketligini ko'rishimiz mumkin. Bunda tasvir harakatlanayotganga o'hshab ko'rinadi. Asarni yaxlit holda tomosha qilsakgina harakatni sezishimiz mumkin, harakatning bo'lak momentlarida u sezilmaydi. Harakatlanayotgan ob'ektning oldidagi ochiq masofa harakatni fikran davom ettirish imkoniyati tugdiradi. Aks holda ob'ekt qogoz sathining chekkalariga juda yaqin qilib tasvirlansa, xuddi harakat to'htab qolgandek tuyuladi. Shuningdek harakatni rasmdagi chiziqlarning yo'nalishi orqali ham berish mumkin. Masalan, barcha chiziqlar qog'oz

sathining chuqurligiga yo'nalgan. Bunda qahramonni eng kuchga to'lgan vaqtini tasvirlasak harakatning ta'sirchanligi ortadi. Shu bilan birga harakat hissini ob'ektning silliq bo'yalgan foni noaniq konturlari ham berishi mumkin. Fondagi qo'llagan vertikal va gorizontal chiziqlar harakatni to'htatib qo'yadi. Harakat yo'nalishini o'zgarishi esa harakatni tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi. Statikani berish qoidasi. Quyidagi sharoitlarda kompozitsiya static hisoblanadi. Agar kartinada diagonal yo'nalishlar yo'q bo'lsa; Agar ob'ektlar tinch (statik) pozada tasvirlangan bo'lsa, harakatning kulminatsiyasi bo'lmaydi; Agar kompozitsiya simmetrik, muvozanatda yoki oddiy geometrik sxemalar (uchburchak, aylana, oval, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak) asosida qurilgan bo'lsa. Tinchlik hissi san'atning asarida yoki boshqa sharoitlarda paydo bo'lishi mumkin. Masalan, K.Korovinning "Qishda" kartinasida diagonal yo'nalishlarning ko'pligiga qaramay, changi qo'shilgan ot tinch turibdi, undagi harakat quyidagi sabablarga ko'ra sezilmaydi: kartinaning kompozitsion va geometrik markazi bir-biriga mos, kompozitsiya muvozanatda va otning oldidagi ochiq sathda daraxt tasvirlangan. Syujetli - kompozitsion markazni aniqlash. Rassom kompozitsiya yaratar ekan, kartinada eng asosiysi nima bo'lishini va bu asosiy syujetni ya'ni "mazmun markazi" deb ataluvchi syujetli - kompozitsion markazni qanday ajratib ko'rsatish to'g'risida o'ylashi lozim.

Albatta syujetda hamma narsa bir xil muhim va ikkinchi darajada turuvchi qismlar asosiy syujetga bo'ysunadi. Kompozitsiyaning markazi asosiy harakat bilan unda qatnashuvchi asosiy shaxslarni o'ziga bog'laydi. Asardagi kompozitsion markaz o'ziga diqqatni jalb etishi lozim. Markaz rang, yorug'lik, tasvirni yiriklashtirish, kontrast va boshqa vositalari bilan ajratiladi. Kompozitsiya markazi faqat rangtasvir asarlaridagina emas, balki grafika, haykaltaroshlik, dekorativ san'at, me'morchilikda ham ajratiladi. Masalan, Uyg'onish davri rassomlari kompozitsiya markazi xolstning markazida turishini xohlashgan. Bosh qahramonni holstning markazida tasvirlash orqali rassomlar uning syujet uchun muhim rol uyg'onishini ta'kidlamoqchi bo'lishgan

## **2-mavzu. Kompozitsiyada badiiy fikrlash xususiyatlari**

### **(2 soat)**

Kompozitsiyaning qoidalari, priyomlari va vositalari kompozitsiyaning badiiy ahamiyat va nazariyaning rivojlangan qonun-qoidalari va vositalari mavjud. Quyida asar yaratish jarayonida musavvirga yordam beruvchi asosiy qoidalari va vositalar haqida kengroq to'xtalib o'tmoqchimiz. Albatta insonning o'zida hech qanday ijodiy qobiliyat yoki qiziqish bo'lmasa uni hech qanday qonun, qoidalar va vositalar bilan to'ldirib bo'lmaydi. Qobiliyatli rassomlar to'g'ri kompozitsion yechimni o'zining hissiyot va sezgisi orqali topadi, lekin bu qobiliyatni rivojlantirish uchun nazariyani

ko'proq o'rganib, uni amaliyotda qo'llab ko'proq mehnat qilish lozim. Kompozitsiya yuqorida aytib o'tganimizdek aniq qonunlar asosida quriladi. Uning qoidalari, priyomlari va vositalari esa butun ish jarayonida qo'llaniladi. Ular badiiy asarning yaxlitligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Rassomning fikri taassurotini yoritib beruvchi badiiy vositalarning qo'llanilishi va original kompozitsion yechimni topish kompozitsiyaning tasviriy asosi hisoblanadi. Kompozitsiyaning qoidalarini quyidagilarga ajratish mumkin: harakat (dinamika)ni berish, tinchlik (statika, oltin kesim 1/3). Kompozitsiyaning priyomlariga ritm, simmetriya va assimmetriya, muvozanat va syujetli - kompozitsion markazni aniqlash kiradi. Kompozitsiyaning vositalari quyidagilardan iborat: format, masofa, kompozitsion markaz, ritm, kontrast. Yorug'-soya, rang, dekorativlik, dinamika va statika simmetriya va assimmetriya, ochiqlik va yopiqlik, yaxlitlik va hokazo. Shunday qilib, kompozitsiya vositalari, bu kompozitsiyani yaratishda zarur bo'lgan barcha narsalar, shu bilan birga ularning qatoriga kompozitsiyaning qoidalari va priyomlarini ham kiritamiz. Ular turli tuman. Biz bu yerda eng asosiylari to'g'risidagina ma'lumotlarni berdik. Ritm. Hammaga ma'lumki, ritm - bu tabiatning universal xususiyatidir. Masalan, kun va tun, yil fasllari siklik ravishda o'zgarib turadi, hayvonlar, o'simliklar va materiallarning rivojlanish jarayoni aniq ketma-ketlikka ega. Lekin hayot va san'atdagi ritm bir hil emas. San'atda ritm va ritmik aktsentlarda uzilish, notenglik, noaniqlik bo'lishi mumkin.

Yaxlitlik qonuni. Kompozitsiyaning birinchi qonuni asarning yaxlitligi qonuni hisoblanadi. Badiiy asarning qonunan qurilgan yaxlitligini kompozitsiya aniqlab beradi. Kompozitsiyaning barcha unsurlari rassomning mantiqiy o'y-fikrlarini birlashtirgan holda joylashadi. Biz buyumni yoki asarni kuzatar ekanmiz, avvalo uning umumiy ko'rinishiga e'tibor beramiz va bo'laklarni bir-biriga taqqoslaymiz. Demak, asarning bir butunligi (yaxlitligi) kompozitsiyani tashkil etadigan barcha qismlarining o'zaro bog'liqligidir. Unsurlarning uyg'unligi o'zida kompozitsiyaning xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Yaxlitlik tushunchasi kompozitsiya unsurlarining bir-biriga bevosita bo'ysunishi kabi tushunchalar bilan bog'liqdir. Bu qonun badiiy tasvirning hamma turlarining asosiy qonuni hisoblanadi. Yaxlitlik qonunini qo'llamasdan turib chizish ham, naturadan ishlash ham mumkin emas. Shakl ham, rang ham o'z-o'zicha paydo bo'lmaydi, balki ular butunlik bilan munosabatda, butunning qismi sifatida ko'rinadi. Kartinada chuqur o'ylanmagan konstruktiv fikr bo'lmasa, bo'laklar xuddi yopishtirib ishlanganday bo'ladi. Bunday holatda biz faqat alohida figuralarning o'zinigina eslab qolamiz. Asarda butunlik bo'lmaydi. Rassomlar kompozitsiyaning konstruktiv-fikriy tuzilishini topish uchun turli usullardan foydalanishadi. Ba'zi rassomlar kompozitsiyani tartib bilan o'ylab topadi, ba'zilar esa oldin tasavvuriga nima kelsa o'shani tartibsiz chizib tashlaydi, keyin esa undan yo'l kursatuvchi konstruktiv fikr qidiradi. Mukammal kompozitsiyani yaratish rassom



uchun murakkab yo'l hisoblanadi. Shuning uchun ham mukammal yaratilgan kompozitsiyadagi bitta detalni olsak ham uning yaxlitligiga zarar yetadi. Bunday kompozitsiyaning barcha unsurlarining aloqasi aniq va mazmundor bo'lganligidan unga qo'shimchalar kiritib va o'zgartirib bo'lmaydi. Kompozitsiyaning barcha unsurlarining o'zaro aloqasi faqatgina mantiqan emas, balki uyg'unlik yaratuvchi emotsional estetik sifatlarga ega. Kompozitsiyaning yaxlitligi, aloqasi va bir-biriga bog'liqligi muammosi kompozitsiya elementlarining takrorlanmasligi, turli-tumanligi vazifasi bilan uzilmas aloqadadir. Kompozitsiyada hech narsa takrorlanmasligi kerak. Uning kattaligi, dog'i, intervallari, tipi, jesti ya'ni harakat belgisi ham takrorlanmasligi kerak. Ularning hammasi bir butun dog' yoki siluetga birlashishi o'zbek rassomlari Abdulhak Abdullayev, Malik Nabiyeu portretlari, rus rassomlaridan M.Grekov, Surikov va Repin asarlarini olishimiz mumkin. Ko'pgina rassomlar o'zlarining ko'p figurali asarlarini yaratib, ko'p detallarini takrorlanmasligiga erishishgan. Asarda harakatni aniq tasvirlash uchun tasvirlanayotgan voqeani kulminatsion nuqtasini topish, ya'ni oldingi harakatning belgilarini va keyingi bo'lajak voqealarni his qilish va tasvirlash lozim. Asarda qonunning bu belgilarini bera olmaslik kompozitsiyaning qotib qolishiga olib keladi.

### **3-mavzu. Kompozitsion yechim va qoidalar**

#### **(2 soat)**

Nuqta - bu ob'yekt, boshqa ob'yektlarga nisbatan hech shubhalanmasdan hajmlari kichik.

Nuqta (tasvirda) - tekislikda imkon boricha minimal shakl, minimal grafik element.

Nuqta quyuk yoki uncha sezilmaydigan, shaklning noaniqlik munosabati bilan - yirik yoki kichik bo'lishi mumkin. Nuqtani masshtabda kengaytirilishi dog'ni paydo bo'lishiga olib keladi.

Nuqta fazoviylikdagi o'rnini belgilaydi. Nuqtaning bo'yi ham, kengligi ham, chuqurligi ham yo'q deb qabul qilish hisoblangan, shuning uchun u statik va harakatsizdir.

Shaklning ilk generatori sifatida, ikki chiziqning yoki burchakning yuqori, hajmning yoki tekislik chizig'ining kesishgan joyining oxiri deb belgilash mumkin.

Odatda nuqtaning dog' ko'rinishida, yumaloq konturda, qaysiki fonga nisbatan juda kichik tasvirlanadi (chiziladi). Biroq, nuqta sifatida va boshqa yetarli darajada kichkina va ixcham elementlar va har qanday shakl ob'yektida foydalanish mumkin.

Nuqta kompozitsiya fazoviyligida element sifatida - tushunchaga nisbatan va umumiy fikrga va kenglilik bilan moslashtiriladi. Nuqta va fon orasida vizual keskinlik paydo bo'ladi. Nuqta tekislikda grafik aktsent sifatida ajratiladi.

Nuqta o'zining kichik hajmiga qaramasdan, kompozitsiyani qurishda juda ham

keng imkoniyatlarga egalik qiladi. Aksar ko'p hollarda u qurishning markazi hisoblanadi.

Nuqta hoshiya markazida yoki fazoviylikda bo'lib, doimiydir va harakatsizdir va u o'zining atrofida boshqa elementlarni uyushtirishi mumkin. Hattoki uni siljitilsa ham, u o'zining markazda bo'lish qobiliyatini saqlab qoladi, ammo nisbatan dinamik shakllanib boradi.

Nuqta asosida paydo bo'lgan shakllar - aylana va sfera ham nuqtaning o'ziga xos markazda bo'lish qobiliyatiga egadirlar.

Nuqtani, kompozitsion muhit sifatida ko'rib chizilganda, u o'ziga tomoshabinlar e'tiborini fokusga to'g'irlashi mumkin. Bularning barchasi uning kompozitsiyada namoyon bo'ladigan xususiyatlariga boqliq bo'ladi:

tekislikda joylashtirish;

hajmga nisbatan;

siluetga;

-to'ldirishning zichligi;

ravshanlik, yorug'lik va boshqalar;

Agar nuqta bu vositalardan o'zining xususiyatiga qarab keskin farqlansa, u kompozitsiyada xiyla ko'proq ajratib ko'rsatiladi. Bordiyu, unga yaqinlashilsa, uning dominantali ahamiyati pasayadi. O'shanda u bir qator boshqa vositalarni, umumiy kompozitsiyaning ahamiyatli qismiga teng keladiganini kiritadi.

Nuqtaning badiiy xususiyati to'g'ridan-to'g'ri chiziqlar xususiyati bilan, dog' va rang, bir butun garmonik tashkil etilgan, grafik tekislik bilan bog'lanadi.

**CHIZIQ.**

Cho'zilgan nuqta chiziqqa aylanadi. Nazariy jihatdan chiziq faqat bir ko'lamga - uzunasiga ega.

Chiziq - aniq yo'nalish bo'yicha, ya'ni grafik rivojlanishning elementar modelida, nuqtalarning ketma-ket tashkil etilganligi, element.

Garchi chiziq uzunligining dominantasi vizual bo'lsa ham, uning qalinligi bo'lishi ham kerak, boshqacha qilib aytganda uni ko'rish mumkin bo'lmaydi. Ularni yaqqol ko'rinadigan shakllar, chiziqlarni qalinligi va xarakteri bo'yicha aniqlanadi. Ular qalin va ingicha, aniq va yumshoq, qayrilma va siniq bo'lishi mumkin.

Chiziqlar tasvirida quyidagi sifatlarga egadirlar:

uzunligi bo'yicha (cho'zilgan) - uzun va qisqa;

qalinligi bo'yicha (qalin va ingichka);

vertikal va gorizonal nuqtai nazariga qarab qayd qilish (gorizontal, vertikal, nishabli);

egilganlik darajasi (to'g'ri va qiyshiq)

plastikali (sindirilgan yoki bukiluvchan, "qat'iylik", "jonli" va hokazo);

fakturali va teksturali (yumshoq va aniq)

Chiziqning fazoviy-dinamik sifati - harakatning faolligi va yo'nalishi (osoyishta, dinamiklik va hokoza), fazoviylik rejasi bilan aloqadorligi.

### **Chiziq turlari.**

**To'g'ri chiziq** cho'ziluvchi, ikki nuqta orasida mavjud bo'lganlikni ifoda etadi.

**Gorizontal chiziqlar** barqarorlikni, harakatsizlikni yoki tekislikni, ya'ni biz to'xtab turadigan yoki yuradigan chiziqni ifodalaydi.

**Vertikal chiziq** gravitatsiya kuchiga nisbatan tenglik holatini assotsiyalashi mumkin. To'g'ri chiziqdagi muhim xarakteristikasi uning yo'nalishidir.

**Diagonal chiziqlar**, gorizontallikdan yoki vertikallikdan og'ishi ko'tarilish yoki pasayishi sifatida qaralishi mumkin, ular harakatni ifoda etadi va vizual juda ham faol va dinamikdir. U shu qadar, vertikal kabi faol emas va gorizontal kabi passivdir.

Ular orasida bo'lish va doimo gorizontallikda, diagonalda ko'tarilishda, passivlikni yengib, kurashish hissiyotini chaqiradi. Bu aniq ifoda etilganlikda, diagonalga nisbatan vertikalga yaqinlashtiradi.

Diagonalning ikki tipi ajratiladi: - o'ng (past chap burchakdan yuqori o'ng burchakka) va chap.

O'ng diagonal anchagina jadal harakat taassurotini va chapga nisbatan hissiyotli ta'sirini yuzaga keltiradi. Kuzatish davomida, o'ng diagonalni o'rganib, biz beixtiyor ko'zimizni yuqoriga ko'taramiz.

Chap diagonalni ko'rib chiqish vaqtida, biz "sirg'alishni" va nihoyat diagonal asos harakatining to'xtashini his etamiz.

Chap va o'ng diagonallarni qabul qilish shartlilikdagi farqi va hissiyotli xarakteristikasi: ko'tarilish diagonali va pasayish diagonali.

Diagonal, boshqa har qanday to'g'ri chiziqlar, bir maromdagi harakatning taassurotini tug'diradi.

Egri chiziqlar og'ishganlik bilan harakatning turli orientir olishi, yon kuchlarning ta'sir etilishini chaqiruvchanligi bilan ifodalaydi. Egri chiziqlar sekin harakat bilan assotsiyalanadi

Qanday orientir olishdan qat'iy nazar ular ma'naviy ko'tarilish, barqarorlik va yerga bog'liqlikni ifoda etadi. To'g'ri chiziqlarni farqlashda biz teng bo'lmagan harakatlarni uchratamiz. Bu harakatni ko'zning silliq joyi tez va osoyishta qabul qiladi. Keskin aylana ko'zni to'xtashiga majbur etadi va shuningdek sekinlashgan harakatning his tuyg'usini chaqiradi.

Ayniqsa egri qiyshiq chiziqning, ko'tarilish diagonaliga mos ravishda ajratishga amal qilmoq kerak. Chiziq, bir butun yuqoriga ko'tarilishi, pastdan egikdir.

Bu ikki kuch o'rtasidagi kurashish taassurotini beradi: og'irlik kuchi va

ko'tarilish kuchi. Egilib, qiyshilikda og'irlik kuchini yengandek, uning ostidan ozod etilgandek bo'ladi va yuqoriga intilib, yengib bo'lamaydigan kuchlarni va harakatlarni mujassamlashtiradi.

Chiziqli elementlar har qanday vizual konstruktsiyalarni shakllantirishda juda muhimdir. Chiziqsiz biz predmetlarning tashqi ko'rinishini ajrata olmas edik. Chiziqlar, shuningdek predmetlarning o'rab turgan muhitning ajratib turuvchi chegarasini belgilaydi. Bundan tashqari, ular ifodali xususiyatlar konturini to'ldiradi.

Chiziqlar predmetlar tashqi ko'rinishi belgilashdan tashqari, ular tekislik tomonlarini va hajmlar burchagini ham ifodalaydi.

Shaklli chiziqlar vertikallikni va gorizontallikni yaratish uchun qo'llaniladi, cho'ziqlikni va harakatni fazoviylik orqali, fazoviylik hajmlar ^flarim ^gar^ashm ifoda etadi.

Chiziqlar kompozitsiyasida ko'pincha ular o'rtasidagi elementlarni tartibga solish maqsadida va kompozitsiya tizimining bir butunligini yaratish uchun qo'llaniladi.

#### **4-mavzu. Tasviriy san'atda nur-soya xususiyatlari (2 soat)**

Ritm bu elementlarning vaqtda va fazoviylikdagi qonuniyatlarga asoslanib almashinuvi.

Ritm - badiiy asarni tashkil etishdagi muhim vositadir; kompozitsiyada biologik ehtiyoj bilan bog'liq barchasi ritmga bo'ysinish kerakligi.

Ritm - harakat shakli va materiyaning organik o'ziga xos xususiyatidir. Barchasi, nima harakatlansa, rivojlansa, tabiatga va inson faoliyatiga - ritmga bo'ysunib ishlaydi.

Yurak urishining, nafas olishning kunduz va kechaning va yil vaqtining, quyilish va pasayishning almashinuvidagi ritmlar. Barcha yuksak turli tuman tabiat ritmlari inson hayotiga uyushtirilganligiga ta'sir etuvchi, uning faoliyatidagi barcha harakatlarga, mehnat bilan dam olishni almashinivi bilan boshlanib va san'at asarida badiiy shaklni ritmik tashkil etish bilan tugallangan bo'lib ko'rinadi.

San'atda ritm, obraz asosi sifatida, tashkil etish va estetik funktsiyani bajaradi. U formal strukturada, ko'proq adekvat va intensiv, boshqa badiiy vositalarga nisbatan harakatni tashkil etadi. Uning harakati grafikada kompozitsiya xususiyatlari, tonal kontrastlar, shakl va hajmlar kontrastlari bilan ta'minlanadi.

Ritm ko'rinishning aktiv tomonlarini ifoda etadi va idrok qilishda aktivatordir.

Klassik aniqlashda, ritm (grekchadan rheo - teku)- qandaydir elementlarni muayyan ketma-ketligi, tezlik, tez-tez takrorlanishda sodir bo'ladigan almashinuv.

Asarlar komponentlarini bo'lishda, u ularni, dinamik yaxlitlik hissini tashkil etib birlashtiradi. Kompozitsiyada elementlar almashinuvi estetik ochiqlik hissini beradi.

Turli tuman hislarning ritmik almashinuvi ijobiy hissiyotni chaqiradi. Holatning uzoq bir xilligi yoki bir turdagi, monoton taassurot, aksincha, psixikani qiynaydi.

Ritmik yo'naltirilganlik - umumiy fazoviy orientir olish yoki kompozitsion elementlarning umumiy yo'nalishi. Agar kompozitsiyada ritmik asosiy yo'nalish vertikal yoki gorizontal bo'lsa, ritm xarakteri esa faraz qilingan hajmiy, bir tekis, dinamik-emotsionallik holatini tasdiqlaydi. Agarda kompozitsiyada ritmik yo'nalish diagonal yoki radial (shu'lasimon) bo'lsa, e<sup>^^</sup>ada esa - dinamik, aktiv, intiluvchandir.

Ritmik yurish - intervallarni aniqlash orqali urg'u beruvchi elementlarning almashinuvi - pauzalar, bo'shliqlar (musiqadagi analog - ritmik tasvir).

Intervalda elementlar orasidagi masofani metrik qadamlar, bunday bir xil qadamlarning ketma-ketligi - metrdir. IIIe!<sup>^</sup> qancha keng bo'lsa (katta metrik qadamga nisbatan), harakatning tezligi shuncha kamdir (<sup>^</sup>mp), intervalga nisbatan (kichik metrik qadamga nisbatan), temp shuncha tezdir.

Ritmik yurish teng va teng emas. Ritmik yurishning asta<sup>^^</sup>n<sup>^</sup> tanaffusi dinamik effektini kuchaytiradi.

Metrik qaytarilishdan farqi qonuniylik, ya'niki ritm tashkil etilgan, asta-sekinlikda miqdorni o'lchashda birqator almashinadigan elementlarni kuchayib borishi yoki elementlarning o'lishi, hajmlari yoki maydoni, tizimni, ton kuchi ifoda etiladi.

Buni shunday tushuntirish mumkinki, ritmik qator kompozitsion harakat shaklida topshiriladi va dinamiklikni ko'rsatish bilan va kompozitsion muvozanat bilan bog'liq.

Ritmik qatoming ortib borish tartibini, elementlar hajmini, ulaming to'yinganlini o'zgartish, kompozitsining dinamikligini kuchaytirish yoki kuchsizlantirish mumkin

Ritm ko'z bilan qabul qilishning shunday xususiyati bilan, xuddi ko'zning harakati qator o'zgartirishidagi oshib borayotgan yo'nalishga bog'liqdek. Bizning ko'zimiz ritmik qatorni qurish qonuniyatidan bilinarli arang chekinishga juda ham sezgir javob beradi.

